

## «YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!»

**Karomova Maxfuzा Suvonovna**

Buxoro viloyati Vobkent tumani tarix huquq fani o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o'zbek xalqining ta'lif tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamон kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, bugungi kunda yosh avlodni har jihatdan barkamol inson sifatida shakllantirish ta'lif-tarbiya tizimida dolzarb muammolardan etib belgilandi. Shuningdek „Yangi O'zbekistonda yangihayot uchun “Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Mavzuga oid kalit so'zlar:** vatan, mustaqillik, ota-on, istiqlol.

O'tgan tarixan qisqa vaqt davomida xalqimizning fidokorona mehnati va qat'iyati bilan milliy o'zligimiz, qadimiylar tariximiz, boy madaniyatimiz, ezgu qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi, davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o'zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rniiga ega bo'ldi.

Mustaqil taraqqiyot yo'lidagi keng ko'lami islohotlarni izchil davom ettirish, barcha soha va tarmoqlar rivojini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bugungi kunda yurtimizda millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan yangi jamiyat va davlat barpo etilmoqda.

Mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan yangilangan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi el-yurtimiz Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish va tadirkorlikka keng yo'l ochish, yangi ish o'rnlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirish, tibbiy xizmatlar va ta'lif sifatini jahon standartlariga moslashtirish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, brtimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish yo'lida erishayotgan natijalarimiz tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda, ularni har bir yurtdoshimiz o'z hayotida sezmoqda, his etmoqda.

Dunyodagi murakkab siyosiy-iqtisodiy vaziyatga qaramasdan, boshlagan islohotlarimizni izchil davom ettirib, yangi bosqichga olib chiqishda biz uchun barcha yutuqlarimiz omili, kuch-g'ayrat, g'urur va ilhom manbai bo'lib xizmat qilayotgan Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligini Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyot darajasi, shonu shuhratiga mos holda munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Vatanimiz mustaqilligining har yilligini nishonlash nafaqat bizning yurtimizda, balki dunyodagi aksariyat mamlakatlarda an'ana tusiga kirgan. Bu bejizga emas albatta. Bundan ko'zlangan maqsad yosh avlodga mustaqillik o'z-o'zidan berilmasligi, uning uchun

ko‘plab ajdodlarning, ota-bobolarning muqaddas qonlari to‘kilgani, o‘z Vatani mustaqilligi uchun o‘z jonlarini ayamasdan kurashgani hurmati yotganini tushuntirish hisoblanadi aslida.

Shuning uchun ham an'anaga sodiq qolgan holda mustaqilligimizning o‘ttiz ikki yillik bayramini nishonlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2023 yil 27 iyuldaggi PQ-241-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot tashviqot ishlari qaror bilan tasdiqlangan dastur asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Barcha hududlarda aholining keng qatlamlari o‘rtasida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy anjumanlar, “uch avlod uchrashuvi” tadbirlari, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy skechalar, milliy kino kunlari, gostronomik festivallar, sayllar madaniyat va sport tadbirlarini samarali o‘tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyondalari, madaniyat va san’at arboblari, taniqli sportchilardan iborat targ‘ibot guruhlari shakllantirilishi belgilab qo‘yilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad har bir tadbir ozodlikni tarannum etish, uning asl mazmun-mohiyatini oshib berishga qaratilgan bo‘lishi, yosh avlod tadbirlardan mustaqillik buyuk ne’mat ekanligini anglashi, mutaqillikni asrash uchun ular ham mas’ul ekanligini tushuntirish lozim hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga yo‘llagan so‘nggi Murojaatnomasida “Jonajon O‘zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Aholimiz 36 milliondan oshdi. Har yili safimizga qariyb 900 ming yangi avlod qo‘shilmoqda. O‘zbekiston deb atalmish katta va inoq oilaning har bir a’zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish yo‘lida tinimsiz izlanyapmiz. Yakuniga yetayotgan 2022 yil g‘oyat murakkab va sinovli yil bo‘ldi, desam, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu davrda to‘plagan tajribamiz bir haqiqatni yaqqol isbotlab bermoqda: **taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratlari mehnat orqali erishiladi**” – deb aytgan gaplarida ulkan ma’no mujassam.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sohaga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu ham Inson qadri ortib borayotganidan dalolat desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, 2017 yilda kam ta’minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo‘lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko‘mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag‘lar esa, 7 barobar ko‘paytirilib, yiliga 11 trillion so‘mga yetdi. Ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini, aholi jon boshiga daromadlarni oshirish siyosatini izchil davom etmoqda.

Bu raqamlarni aytish oson. Ularning har biri ortida mashaqqatli mehnat turibdi. Chunki inson qadri, insonni e’zozlash – e’tiborimizdagi eng asosiy masala. Shu maqsadda oxirgi olti yilda mamlakatimiz bo‘yicha qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko‘p uy-joylar qurildi. Bu davrda qo‘srimcha 500 ming o‘quvchi o‘rni yaratilib, ularning jami soni 5 million 300 mingga yetdi. Hozirgi vaqtida

yana 1 million 200 ming o'quvchi o'rni yaratish bo'yicha ishlar jadal davom ettirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston jahon siyosati markazlaridan biriga aylanayotgani, xalqaro hamjamiyat buni keng e'tirof etayotgani ham ayni haqiqatdir. Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari hamda o'nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlarga mezbonlik qildik va muhim tashabbuslarni ilgari surdik. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ushbu yilning yurtimizda "**Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili**", deb e'lon qilinganidan ham bilish mumkinki yurtimizda insonga e'tibor toboro ortib bormoqda. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon.

Aslida ham, bizning eng bebafo boyligimiz, bu – bunyodkor xalqimiz, duogo'y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'lidan aslo to'xtamaymiz.

Imom Moturidiy bobomizning: "**Elu yurt bilan hamdard bo'lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo'lgay**", degan hayotiy hikmati har bir vazir, har qaysi rahbarning ongi, qalbi va harakatida muhrlanishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev BMT ning 72-sessiyasidagi nutqi. 2.,, Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch " Toshkent 2008-yil O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.Buyuk kelajagimiz kafolati. Toshkent 2009.
4. 10-11-sinf Tarbiya darsliklari.